

INKLUZIV TA'LIM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti,

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti

Kadirova Rozigul Satarkulovna

Annotatsiya: *Ta'lim sohasida o'quvchilar bilan muomala qilishda oila, mahalla bilan birgalikda hamkorlik masalasini yolga qo'yish. Bunda ta'lim sohasida pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so'zlashishni bilish lozim. So'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, pedagog, oila, mahalla, maktab, Oliy ta'lim, BMT, professor, tempus.*

KIRISH:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda o'quv jarayoniga xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, qo'shma ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va pedagogik tajriba almashish sohasida doimiy xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vazifasi belgilab berilgan edi.

Hozirda ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Jamoat xavfsizligi universitetida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Joriy yilning 10-12 noyabr kunlari Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalari delegatsiyasining O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti faoliyati bilan tanishish hamda anglashuv memorandumlarini imzolash uchun tashrifi amalga oshirildi¹.

Qarorda Universitetning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib, o'quv jarayonini o'qitishning zamonaviy shakl va uslublari, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llagan holda nazariya va amaliyot uzviyligini ta'minlash orqali tashkil etish;

oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashning eng dolzarb muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlarni, shu jumladan mahalliy va xalqaro grantlarni jalb etgan holda, o'tkazish;

o'quv jarayoniga xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, qo'shma ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va pedagogik tajriba almashish sohasida doimiy xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vazifalari belgilangan edi.

Xususan, Joriy yilning 10-12 noyabr kunlari Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalari delegatsiyasining O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti faoliyati bilan tanishish hamda anglashuv memorandumlarini imzolash uchun tashrifi amalga oshirildi.

Mazkur tashrif davomida ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida 4 nafar oliy ta'lim muassasalari: Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi B.Beysenov nomidagi Karaganda Akademiyasi, M.Yesbulatov nomidagi Olmota Akademiyasi hamda Qozog'iston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy instituti va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o'rtasida anglashuv Memorandumlari, shuningdek Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti – Elboshi nomidagi Qozog'iston Respublikasi Milliy universitetining Milliy

¹ 12 Noyabr 2021, 10660

gvardiya fakulteti va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o'rtasida o'zaro anglashuv protokoli imzolandi.

Ushbu memorandumning maqsadi ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyat yuzasidan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini tartibga soladi. Ikki davlat oliy ta'lim dargohlarining istiqbolda turli sohalarda hamkorligi ya'ni ilmiy metodik konferensiyalar tashkil etish, ilmiy uslubiy qo'llanmalar, darslik va metodik materiallar tayyorlashda, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash, ikki tomonlama hamkorlikni yana-da mustahkamlash, soha mutaxassislari o'rtasida tajriba almashish va zamonaviy ilmiy-metodik dasturlarni amaliyotga keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tashrifning birinchi kuni mehmonlar Universitetda yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik bazasi hamda kadrlar tayyorlash tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, fahriy mehmonlar kitobiga iliq fikrlarini yozib qoldirdilar.

Tashrifning ikkinchi kuni mehmonlar uchun go'zal va qadimiy Samarqand sayqaliga sayohat tashkillashtirildi. U yerda mehmonlar shaharning tarixiy obidalarini, diqqatga sazovor joylari va afsonaviy muqaddas qadamjolari bilan tanishdilar.

Tashrifning uchunchi kuni Qozog'iston delegatsiyasi vakillari poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" va "Shon-sharaf" davlat muzeyiga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida "Mangu jasorat" monumenti, O'zbek ayolining matonati timsoli sifatida Zulfiya aya Zokirova, uning urushdan qaytmagan besh farzandi hamda beva qolgan to'rt kelini xotirasiga bag'ishlangan "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasiga hurmat bajo keltirgan holda gulchambarlar qo'yildi.

Ushbu ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik ta'lim sifati va samaradorligida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sohalar bo'yicha

yetuk kadrlar tayyorlash, ularning malaka va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi².

Yurtimizda “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g'oya asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda barcha sohalar qatori ta'lim sohasidagi islohotlar ham xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda.

Shu maqsadda bugun O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi qoshidagi “Ziyo-zukko” umumta'lim maktabiga Yaponiyaning Nagoya universiteti Pedagogika va inson resurslarini rivojlantirish oliy maktabi professorlaridan iborat delegatsiya mehmon bo'ldi.

Mazkur tashrifdan ko'zlangan maqsad – respublikada maktab ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga doir hamkorlik masalalarini muhokama qilishdan iborat.

Pedagogika va inson resurslarini rivojlantirish oliy maktabi professori, dekan muovini Shibata Yasuaki boshchiligidagi delegatsiyani O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Zohidjon Islomov, “Ziyo-zukko” umumta'lim maktabi direktori Nargiza Ismatova hamda Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Bahodir Xo'jayev kutib oldi.

Suhbat avvalida Nargiza Ismatova mehmonlarni yurtimizda ko'rib turganidan mamnunligini bildirdi.

Nargiza Ismatova bugungi kunda davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar haqida ma'lumot berdi. Yurtimizdagi ta'lim tizimidagi islohotlar Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida amalga oshirilayotganini qayd etdi.

² O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Matbuot xizmati

Chindan ham, har qanday taraqqiy topgan mamlakatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq”.

O'z navbatida Pedagogika va inson resurslarini rivojlantirish oliy maktabi professori, dekan muovini Shibata Yasuaki yuqori darajadagi mehmondo'stlik uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari tarixan mazmunli, keng miqyosdagi hamkorlik aloqalariga boy bo'lganini e'tirof etib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarga yuqori baho berdi.

Uchrashuv davomida Nargiza Ismatova “Ziyo-zukko” maktabi haqida so'z yuritdi. Bugungi kunda maktabda 730 dan o'quvchiga 130 dan ziyod o'qituvchi saboq bermoqda. Matematika, O'zbekiston tarixi, Ingliz tili va arab tili, Ona tili fanlaridan qo'shimcha fanlar o'qitiladi. Maktabda turli to'garaklar mavjud.

Samimiy muloqotda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi qoshidagi “Ziyo-zukko” umumta'lim maktabi hamda Yaponiyaning Nagoya universiteti Pedagogika va inson resurslarini rivojlantirish oliy maktabi o'rtasida o'zaro pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga doir hamkorlik masalalarini muhokama etildi.

Respublikamizning oliy ta'lim muassasalari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'lim sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirib, dunyo rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganib, quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

Oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilarning malakasini oshirish;

Ta'limning turli yo'nalishlari uchun yangi o'quv dasturlari, zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar yaratilishi;

Oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilarning xorijiy ilmiy ammalii seminar, konferentsiya va simpoziumlarda keng ishtirok etishi;

Professor o'qituvchilarning va talabalarning xorijiy almashinuv dasturlari va treninglarda qatnashuvi;

Xorijiy o'qituvchi va professorlarning respublika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish va tajriba almashinuv maqsadida ishlashga taklif etish;

Oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik XXR, Koreya Respublikasi, Malayziya, Misr, Ummon Sultonligi, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Turkmaniston, Ukraina va boshqa qator davlatlar bilan hukumatlararo va ...aro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik XXR, Koreya Respublikasi, Malayziya, Misr, Ummon Sultonligi, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Turkmaniston, Ukraina va boshqa qator davlatlar bilan hukumatlararo va shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Britaniya Kengashi, Gyote nomidagi institut, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Koreya va Yaponiyaning xalqaro hamkorlik bo'yicha agentliklari, Hindiston va Malayziya texnik hamkorlik dasturi, BMTning rivojlanish dasturi, JB, ATB, ITB va boshqalar bilan yaqindan aloqa o'rnatgan.

Ushbu barcha dastur va loyihalar davlatda oliy ta'limni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv-metodik jarayonni takomillashtirish, professor o'qituvchilarning malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Hozirgi kunda xorijiy o'qituvchi va mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb qilish bo'yicha xorijiy sheriklar bilan hamkorlikka katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi eng faol ish Koreya va Yaponiyaning xalqaro hamkorlik bo'yicha agentliklari JICA va KOICA bilan olib borilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki Ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada oshirish chora tadbirlarini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham qo'llab quvvatladilar.

Yuqorida davlatlarning ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyati va uning huquqiy asoslari haqidagi fikrlarga to'xtalib shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Dunyo hamjamiyatining rivojlanishi ta'lim tizimining rivoji bilan bog'liq ekanligini anglashimiz darkor. Ta'lim rivoji esa hozirgi kunda xalqaro hamkorlik asosida rivojlanadi. Mamlakatimizning ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik faoliyatining tobora kengayib borayotganligi, ta'lim muassasalari bilan ilmiy anjumanlar va ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy ta'lim muassasalari bilan birga olib borilayotganligi, ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro ta'lim kodeksida UNESCO doirasida qabul qilingan konvensiyalar asosida ta'lim tizmini tartibga soluvchi normalar belgilab berilgan. Shuningdek milliy qonunchiligimiz doirasida ta'lim hamkorligini tartibga solish bo'yicha huquqiy normalar takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda maktab, oila, mahalla hamkorligida ko'proq ish olib borilishini ko'zda tutdilar. Bu borada bir qancha yig'ilishlar qilinmoqda. Hamkorlik qilingan ta'limda jinoyatchilar o'quvchilar va tarbiyasi og'ir o'quvchilar natijalari ko'riladi ular oldiga maqsadlar qo'yib kasb-hunar maktablariga yo'naltiriladi. Bu borada bir qancha dasturlar ham ishlab chiqilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining. Adolat-2020. Toshkent. 41-m
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.67- m
3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Ta'lim sohasida hamkorlik" to'g'risidagi shartnoma 08.11.1998.
4. student.uzbekistan.org.ua
5. This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.
6. UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960.
7. Махмудов, Ш. К. (2021). Профессионализм и формирование педагогических способности. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 45-50.
8. Abdullayeva S. R. Pandemiya davrida masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xos afzalliklari //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – С. 303-306.